## FALSAFA

**Yuldashxodjaev Haydar Hashimxanovich (Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi; haydarxon69@mail.ru)**

# MUSOXONXOJA DAHBIDIY ASARLARIDA USTOZ VA SHOGIRD MASALASINING FALSAFIY TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining yirik vakili Musoxon Dahbidiy tomonidan ustoz va shogird tushunchasining talqin etilishidagi o'ziga xos yondashuvlar haqida so'z boradi. Dahbidiy o'z asarlarida Naqshbandiya ta'limotidagi "komil inson", "komil jamiyat", "noqislik", "kamolot", "odamning yaratili" masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, pirlik-shayxlik maqomi mutasavvif alohida e'tibor qaratgan jihatlardan bo'lib, u bu darajani "eng mukammal maqom" deydi.*

***Kalit so'zlar****: ustoz, shogird, pir, murid, komil inson, ilhom, kamolot, mo'jiza, taqvodor, tarbiya, ma'naviy tarbiya.*

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСА НАСТАВНИКА И УЧЕНИКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МУСОХОНХОДЖИ ДАХБИДИ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются уникальные подходы к интерпретации концепции наставник и ученика Мусахана Дахбиди, видного представителя ордена Накшбанди-Муджаддидийа. В своих трудах Дахбиди широко освещал вопросы «совершенного человека», «совершенного общества», «несовершенства», «зрелости», «сотворения человека» в учении Накшбандийа. Статус пир-шейха также является одним из аспектов, которому учёний уделяет особое внимание, и он называет этот уровень «самым совершенным статусом».*

***Ключевые слова:*** *наставник, ученик, пир, мюрид, совершенный человек, вдохновение, совершенство, чудо, благочестивый, образование, духовное воспитания.*

## A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE MENTOR AND DISCIPLE RELATIONSHIP IN THE WORKS OF MUSOKHONKHOJA DAKHBIDI

***Annotation.*** *The article examines the unique approaches to interpreting the concept of mentor and student Musakhan Dahbidi, a prominent representative of the Naqshbandi-Mujaddidiya order. In his works, Dahbidi widely covered the issues of the "perfect man", "perfect society", "imperfection", "maturity", "creation of man" in the teachings of Naqshbandiya. The status of pir-sheikh is also one of the aspects that the scholar pays special attention to, and he calls this level "the most perfect status".*

***Key words:*** *mentor, disciple, pir, murid, perfect man, inspiration, perfection, miracle, pious, education, spiritual upbringing.*

**Kirish.** Vujudi kasal odamlar o'z kasalligini bilmasdan o'zlarini soppa-sog' deb o'ylab, tabibning maslahatlarini olmagani kabi ruhan kasal odamlar ham o'zlarini soppa-sog' deb o'ylab, ustozining nasihatlariga quloq solmaydilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni ustozlar hamda hikmatlar o'rgatadilar.

Tasavvuf ta'limotida ustoz shogirdlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun tasavvufdagi "maxdum", "mustamliy", "robita", "uvaysiylik", tushunchalarida so'fiylar o'rtasidagi ustoz shogirdlik munosobatlari berilgan. Musoxonxoja Dahbidiy risolarida pir-u murshid masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Mutafakkir fikricha, shogird ustoziga butun vujudi bilan bog'lanib, beradigan ilmiga amal qilishi kerakligini ta'kidlaydi. "Bilgilki tolib dili nozini barcha jihatlardan o'girib, o'z piriga mutavajjih qilsin (yuzlansin). Pir borligi tufayli, undan ruxsatsiz navofil (nafs ibodatlar) va azkor (zikrlar)ga kirishmasin va uning huzurida undan boshqaga iltifot ko'rsatmasin (qaramasin). Butun vujudi bilan unga mutavajjih bo'lib o'tirsin. Andisha qilmoq kerakki, bu pastkash dunyo ishlariga rioyati daqiqa kerakdir. Murid piri oldida batamom odob rioyasi lozim bo'ladi. Imkon qadar unga (pirga) yaqinroq turmoq kerakki, uning muborak badanining soyasi uning kiyimiga yoki soyasiga tushsin".[1]

Demak, murid butun qalbi bilan, turli xil xayollarga bormasdan, chalg'imasdan, e'tiborini ustoziga qaratishi lozim bo'ladi. Jumladan, ustozining oldiga odob saqlashi, norozi fikr bermasdan, o'z-o'zini idora qilish kerak. Bu fikrlar hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mutasavvif shogirdning ustozni oldidagi burchlarini keltirib, tohoratsiz borishi mumkin emasligini uqtiradi. "Pirning joynamoziga oyoq qo'ymasin, uning ostonasida

[1] Дахбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-45Б.

tahorat qilmasin. Uning xos idishlaridan ovqat iste'mol qilmasin (idishni ishlatmasin). Uning huzurida suv ichmasin va ovqat tanovul qilmasin. Biror kishi bilan so'zlashmasin, balki biror kishi tomon nozlanmasin. Va ayzan (yana) unda pirga nisbatan muhabbat paydo bo'lgach, muhib nazarida mahbubdan nimaiki sodir bo'lsa, o'sha ishni ham mahbub bo'lib tuyulsin. Bas, e'tirozga o'rin yo'q. kulliy va juz'iy (holatda) pirga iqtido qilsin. Yemoq, ichmoq, kiyinmoq, uxlamoq, toat qilmoq va namoz o'qimoqni pir ado etgan tarzda ado etmog'i kerak. Va fiqhini uning amalidan ahz qilmoq (olmoq, o'rganmoq) kerak. Bayt:

*Onroki dar saroyi nigorist, forig'ast*
*Az sayri bo'stonu tamoshoi lolazor.*[1]

*Mazmuni:* Demak, mutasavvif muridlikka qabul qilishning zohiriy va botiniy tomonlariga ahamiyat bergan. Xos ustozlarning alomatlaridan yana biri himmatini (g'ayrati) botin ilmiga, qalb muroqabasiga, oxirat yo'llari va unda yurish qoidalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi hamda ularning inkishofi uchun mujohada va muroqabaga jiddiy kirishishidir. Chunki mujohada (nafsni vujudiy mashaqqatlar bilan qiynash, havo va havasga qat'iyan qarshi kurashish) muroqabaga (biror narsaga diqqat ila nigoh tashlamoq, xudo fikriga berilib, dunyoga taalluqli xayol, o'tkinchi mayllardan forig' bo'lmoq) yo'l ochadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Musoxonxoja Dahbidiy fikricha, pirning harakatlari, yurish-turishiga nisbatan, garchi qalampir urug'iga bo'lsa-da e'tirozga o'rin qolmasligi kerak. Chunki e'tirozdan mahrumlikdan boshqa natija yo'q. Xaloyiq jumlasining eng besaodat kishisi bu toifaning aybini oxtarguvchi kishisidir. "Najonallohu subhonahu'an hozihil-baloil-azim". Pirdan xavoriq va karomat talab qilmasin. Garchi bu talab xavotir va vasvasa tariqasida bo'lsa ham. Biror mo'min biror payg'ambardan mo'jiza talab qilganini eshitganmisan? Mo'jiza talab qiluvchilar kofirlardir va inkor ahlidir. Bayt:

*Mo'jizot az bahri qahri dushmanast,*
*Bo'yi jinsiyyat payi dil burdanast.*
*Mujibi imon naboshad mo'jizot,*
*Bo'yi jinsiyyat kunad jazbi sifot.*

*Mazmuni:* Ibn Arabiyning ta'vil usuli payg'ambar va so'fiylarga berilgan ilohiy mo'jiza va ilhomlarning tabiatini aniqlashga qaratilgan. Mutasavvif Qur'ondagi "Va Musoning onasiga: "Uni emizaver. Bas. (unga yomonlik yetishidan) qo'rqqan chog'ingda, uni daryoga tashla, qo'rqma, xafa bo'lma, biz, albatta, uni senga qaytaruvchimiz va payg'ambarlardan qiluvchimiz"[2] (Qasos: 7-oyat) oyatini keltiradi. Ibn Arabiy bu oyatni ta'vil qilib, mo'jizalar vahiy va amr orqali amalga oshadi, deydi. Oyatda vahiyning ta'siri natijasida Musoning onasida bolasini daryoga tashlasa, cho'kib ketishi mumkinligi haqidagi qo'rquv yo'qoldi. Mo'jiza Musoni daryoga tashlash to'g'risidagi amr orqali amalga oshdi.

**Tahlil va natijalar.** Musoxonxoja Dahbidiy muridda nuqson bo'lsa, sababini boshqa joydan izlamasligi, o'zini isloh qilish lozimligini keltirib o'tadi. "Agar xotirida biror shubha paydo bo'lib qolsa, uni to'xtovsiz aytsin. Tolibga munkashif bo'lgan ta'birni ham pirga aytsin. Ta'birning to'g'ri yoki noto'g'riligini undan oxtarsin va o'z kashfiga e'timod qilmasin. Chunki bu dunyoda haq va botil mustazijdir".[3]

Ya'qub Charxiy "Al-Maorij" surasida kofirlarning Payg'ambarimiz (s.a.v.)ni yolg'onchiga chiqarmoqchi bo'lganlari to'g'risidagi oyatni tafsir qiladi. Mutasavvif shogirdlariga bid'at hamda zalolatdan uzoq bo'lishlikni tavsiya berib, bu yo'lga kirganlarning ko'rinishidan yaxshi odamga o'xshasa-da, aslida, qalbi nopok bo'lib, yuzida nur yo'qligini ta'kidlaydi.[4] Demak, mutasavvif fikricha, bid'at va zalolat bilan qilingan uzoq toatdan, qalbdan qilingan qisqa toat afzaldir.

Ya'qub Charxiy shogirdlariga pirning huzurida o'tirganda tartibli bo'lishi, ustozidan nuqson qidirmasligi, suhbat va harakatiga e'tiroz bildirmasligini tavsiya beradi.[5]

Dahbidiy fikricha, murid pirining ruxsatisiz hamda zaruratsiz undan ayrilmasin. Chunki pirdan boshqa kishini yoqtirib qolsa, irodatga (munofiyi irodat) xilofdir. Xos fayzga aloqador bo'lgan latofatlardan biri shayx suratida zohir bo'ladi. Ibtilo (mubtalolik) natijasida murid o'sha latofatni boshqa shayxga deb xayol qilishi va fayzni o'shandan deb xayol qilishi mumkin. Bu juda katta xatodir.[6] Forobiy fikricha, inson ustoz-

---

[1] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-46Б.

[2] Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.

[3] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-47Б.

[4] Тафсири Яъқуби Чархий. 68-бет.

[5] Тафсири Яъқуби Чархий. 69-бет.

[6] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.47А-47Б.

ga muhtojdir. Shunday (ustozga muhtoj) kishilardan ba'zilari biror narsa, hodisa haqida tasavvurlarning (bahsli yoki) soxta ekanligini bilib qolsa, boshqa haqiqatga yaqinroq tasavvur darajasiga koʻtariladilar va ular uchun shu masalada bahsli oʻrin qolmaydi. Agar u mana shu tasavvur bilan qanoatlansa, shu tasavvurda qolaveradi. Ammo (qanoatlanmasa) u har gal keyingi tasavvurida ham nuqsonlar borligini sezib qolsa, u yanada yuqoriroq bosqichga koʻtariladi. Mabodo, unga barcha (keyingi) tasavvurlari ham yolgʻon koʻrina boshlasa, u haqiqatga yetishishiga yaqinlashadi.[1]

Musoxon Dahbidiyning Abdulxoliq Gʻijduvoniy bilan suhbat masalasida umumiylik mavjud. Yana shuki, soliq boshqa jins suhbatidan, imkon boricha, goʻyo sherdan qochganday qochar.

*Z-ahmoqan big(u) riz chun Iso girext,*
*Suhbati ahmoq base xunhoki rext.*

*Mazmuni:* Bu harfning ma'nosi shuki, nojins suhbatidan hazar qiling. Chunki odamzod qobil yaratilgan. Kim bilanki oʻtirmasin, uning rangini oladi, ya'ni uning ta'siriga beriladi[2].

Xojagon tariqatining piri Abdulxoliq Gʻijduvoniy (1103–1179) "pok taqvodor sufiy yuqori mansabdor shaxslar, hokim-u salotin ahli bilan aloqada boʻlmasligi lozim, chunki bunday shaxslar koʻproq mazkur dunyo maqsadu manfaatiga berilib, toat-u ibodatdan, Haq taologa sigʻinishdan uzoqlashgan jamoadirlar", deb ta'kidlagan.

Mutasavvif "Sherdan qoʻrqqaningdek, sulton odamlaridan Haq yoʻlidagilar shunday qoʻrqingiz". "Sultonlar bilan birga oʻtirmangiz, chunki bu tariqatga e'tiqodingizni susaytiradi",[3] deb hukmdorlar bilan har qanday aloqani rad etadi.

Naqshbandiya tariqatida keltirilishicha, "Bizning tariqatimiz doimiy huzur va ogohlikdir".

*Naxust mav'izati piri suhbat in harfst,*
*Ki az musohibi nojins ehtiroz kuned.*[4]

*Mazmuni:* piri suhbat ma'ruzalarining harfi (soʻzlari), shubhasiz, shunday boʻladi: "Nojins kishi bilan hamsuhbat boʻlishdan hazar qiling".

Maxdumi A'zamning fikricha, odam avlodlarining barchasi, aslida, har qanday bulgʻanishliklardan pokiza boʻlgan. Bu dunyodagi nopokliklarga yovuz niyatli safdoshlarining suhbati, xulq-atvori orqali yoʻlliqqan ekanlar, suhbatdoshlarning eng yomoni, yomon insonlardur.

Musoxon Dahbidiy suhbatni yoqimli ekanligini quyidagicha keltiradi: "Ey aziz, suhbat tariqasida bir yoqimli soʻz aytay. Kishi oʻz murodotlaridan ba tamom boʻshasa, koʻp murodlarga muttahid boʻlsa, barcha af'ol va avsofidan qoʻrqmaydi Hech qanday e'tiroz uning xotiriga xutur qilmaydi. Agar shu qabilda boʻlmasa, suhbatdan neki hosil boʻlsa, sababga e'tiroz qolmaydi.

*Mushironi guruh, az zulfi yor boz kuned,*
*Shabi xushastu badin qissaash daroz kuned.*[5]

*Mazmuni:* Tasavvuf keng koʻlamli ijtimoiy faollikka ega boʻlib, irfon ahlining aksariyati ijtimoiy faol hayot tarzini afzal koʻrishgan, irfoniy suhbatlar uyushtirishgan, odamlarni oʻz-oʻzi bilan, oilasi bilan, jamiyat bilan, sultonlar bilan murosaga keltirishgan. Musoxon Dahbidiy ustozlarni odobi muridga ta'sir qilishi haqida toʻxtalib, "agar pir tarki adab sababli biror shaxsni rad qilsa, unday kishi dunyo va oxiratning mardudi boʻlgay",[6] deb quyidagi fardni keltiradi:

*Az adab purnur gashtast in falak,*
*Va-z adab ma'sumu pok omad malak*
*Be alab tanho na xudro dosht bad*
*Balki otash dar hama ofoq zad.*
*Gah-gahe zin qavmi shumu beadab,*
*Andarin olam biyaftodi lahab.*[7]
*Mazmuni:*
*Adabdan bu dunyo charogʻon boʻlgandir.*
*Adabdan farishtalar ham ma'sum-u pok boʻldi.*

---

[1] Аликулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Т., "Noshir", 2013, 76-бет.
[2] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 38А.
[3] Абдул – Холиқ ал-Ғиждувоний. Васиятнома. Т., Ғафур Ғулом. 1993, 15-бет.
[4] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 101Б-102А.
[5] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.
[6] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.
[7] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.

*Beadab, faqat o'zinigina yomonga chiqar maydi,*
*Balki butun olamga o't qo'yib yuboradi.*
*Goho bu shum va beadab qavmning kasofatidan bu olamga o't tushib turadi.*

Demak, ustoz shogirdga nisbatan shafqatli bo'lishi va ularga o'z bolalari kabi muomala qilishi, har xil topshiriq bermasligi kerak. Rasululloh (s.a.v.): "Ota o'z farzandiga qanday bo'lsa, men ham sizlar uchun shundayman", deganlar. Bu vazifani ustoz shogirdlarni oxirat azobidan saqlanishi bilan ado etishi mumkin. Mana shu niyat ota-ona farzandini dunë olovidan saqlashidan ko'ra muhimrokdir. Shuning uchun ustozning haqqi ota-onaning haqqidan ustun qo'yiladi. Chunki ota vujud va foniy hayotning sababchisi bo'lsa, ustoz abadiy hayotning sababchisidir.

**Xulosa va takliflar.** Musoxon Dahbidiy ustoz-shogird masalasini tahlil qilib, naqshbandiya tariqati nomoyandalari g'oyalaridan misollar keltiradi. "Tariqat mashoyixlari debdurlar: Shayx muridni talqin qilmoqchi bo'lsa, xilvatga kirsin va o'zini muridning hafsalasiga munosib holda jam qilsin. Shundan keyingina, muridni talqin qilsin. Yana debdurlarki, Toshkentda bir qalandar darvish bor edi. Bozor bilan ko'cha orasida nimaiki oldida ko'rinsa, unga qarab yaqinroq kelib, sekingina: "xudo sizlarni bu musulmonliklardan xalos qilsin", derdi. Ey aziz, haqiqiy musulmon shunday kishidirki, mosivalloh uning ko'ngliga mutlaqo yo'l topa olmasin. Chunonchi, sulton Abusaid Abulxayr (qad ruh) Abu Ali Sinodan nasihat qilishni so'radilar. Alloma javobda yozdi: "Nega majoziy islomdan voz kechib, haqiqiy islomga qo'shilmaysan?"[1]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1, В.46А-45Б.
(2). Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.
(3). Тафсири Яъқуби Чархий. 68-бет.
(4). Аликулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Т., "Noshir", 2013, 76-бет.
(5). Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ қўлёзма, инв № 6576/I, 38А.
(6). Абдул-Холиқ ал-Ғиждувоний. Васиятнома. Т., Ғафур Ғулом, 1993, 15-бет.

**Karimov Zafarbek Ataboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasi dotsenti., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)**

## TA'LIM FALSAFASI VA UNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ta'lim falsafasining nazariy va metodologik asoslari, uning tarixiy ildizlari hamda yondashuvlari va amaliyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turli falsafiy maktablar va ularning ta'limga munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim falsafasi, nazariy va metodologik asoslar, antik falsafa (Suqrot, Platon, Arastu), mayyevtika (Suqrot usuli), ideal jamiyat modeli (Platon), aqliy salohiyat, axloqiy tarbiya, sharq falsafasi (Muso Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino), Bayt ul-hikma, Markaziy Osiyo uyg'onish davri, o'rta asr ta'limi, Al-G'azzoliy, Ibn Sino, XX–XXI asr falsafiy yondashuvlari (pragmatizm, ekzistentsializm, postmodern), kasbiy tayyorgarlik, global muammolar va ta'lim.*

**Каримов Зафарбек Атабоевич (доцент кафедры "Национальная идея и философия" Ургенчского государственного педагогического института, доктор философии по философским наукам (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)**

## ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЕ ТЕОРЕТИКО - МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы философии образования, её исторические корни, подходы и значение в практике. Также проводится философский анализ различных философских школ и их отношения к образованию.*

***Ключевые слова:*** *философия образования, теоретические и методологические основы, античная философия (Сократ, Платон, Аристотель), майевтика (метод Сократа), модель идеального общества (Платон), умственные способности, нравственное воспитание, восточная философия (Мухаммад аль-Хорезми, Аль-Фараби, Бируни, Ибн Сина), Байт аль-Хикма, эпоха Возрождения Центральной Азии, средневековое образование, Аль-Газали, Ибн Сина, философские направления XX–XXI веков (прагматизм, экзистенциализм, постмодерн), профессиональная подготовка, глобальные проблемы и образование.*

[1] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 109Б.